

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ZOKIROVA GULILOLA XURSHID QIZI

**INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FRAZEOLOGIK
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(5-9 SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Zokirova Gulilola Xurshid qizi

Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning frazeologik kompetensiyasini shakllantirish
texnologiyasi (5-9 sinflar misolida) 3

Закирова Гулилола Хуршид кизи

Технология формирования фразеологической компетенции учащихся на
уроках английского языка (на примере 5–9 классов)..... 23

Zokirova Gulilola Khurshid kizi

Technology for Developing Students' Phraseological Competence in English
Lessons (Based on Grades 5-9)..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ZOKIROVA GULILOLA XURSHID QIZI

**INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FRAZEOLOGIK
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(5-9 SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4098 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda "ZiyoNet" axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumanazarov Umid Umirzokovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Munira Rasulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Lola Toxirovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi № _____-raqamli reyestr bayonnomasi.)

N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonida chet tillarni chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda. Xususan, ingliz tilini samarali o'zlashtirish jarayonida nafaqat grammatik va leksik bilimlarni egallash, balki frazeologik kompetensiyani shakllantirish ham muhim omil hisoblanadi. Frazeologik birliklardan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitadi, ularni ingliz tilida erkin va tabiiy muloqotga tayyorlaydi. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari, ayniqsa 5–9-sinflarda, frazeologik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha samarali metodlar va texnologiyalarni qo'llash masalasi dolzarb sanaladi.

Dunyoda xalqaro kommunikatsiya jarayonida chet tilini mukammal bilish nafaqat lingvistik bilimlar, balki nutqiy va madaniy kompetensiyalar majmuini ham talab etadi. Shulardan biri bo'lgan **frazeologik kompetensiya** ingliz tilini egallashda alohida o'rin tutadi. Dunyo ta'lim jamoatchiligi, xususan, G'arbiy Yevropa va AQSH metodistlari olib borgan ilmiy izlanishlarda frazeologik birliklardan foydalanish o'quvchilarning chet tilidagi nutqini tabiiy, ta'sirchan va kommunikativ jihatdan to'laqonli shakllantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Xalqaro hujjatlar, xususan, **CEFR (Common European Framework of Reference for Languages)** ham til kompetensiyalarini shakllantirishda frazeologik birliklardan foydalanishni lug'aviy, grammatik va pragmatik kompetensiyalar bilan teng darajada ahamiyatli ekanini qayd etadi. Bu esa o'quvchilarning faqat grammatik qoidalarni egallashi emas, balki tabiiy nutqiy vaziyatlarda to'g'ri va o'rinli frazeologik vositalardan foydalanish malakasini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda xalqaro maydonga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, chet tillarini puxta egallashga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ingliz tili ta'limi sohasida joriy etilayotgan davlat dasturlari, prezident qarorlari va turli loyihalar bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Maktablarda xorijiy tillar bo'yicha o'quv soatlari va o'quv soatlaridan tashqari to'garak darslarining ko'payishi, hamda zamonaviy darsliklardan foydalanish yosh avlodni jahon tillarini, xususan ingliz tilini chuqur o'rganishga undamoqda. "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim"¹.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining yangilanishi va rivojlanish strategiyalari maktab ta'limida o'quvchilarga qo'yiladigan talablarga ham yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishi. (<https://www.president.uz/en/lists/view/4327>. 06.05.2021)

11-maydagi PF-134-son “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyun PQ-239-sonli “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ingliz tili ta’limida frazeologik kompetensiyani shakllantirish masalasi mahalliy va xorijiy tilshunoslik va metodika sohalarida keng tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda tillarni o‘qitish metodikasi masalalarini o‘rganishga T.Q.Sattorov, G.T.Maxkamova, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, M.T.Irisqulov, F.M.Rashidova, M.D.Jusupov, M.Sh.Ro‘zmetova² va boshqalarning tadqiqotlari bag‘ishlangan.

Dunyo tilshunosligida umumiy frazeologiyaning nazariy va amaliy masalalari hamda frazeologiya o‘qitish P.A.Hovart, Fanni Meunier, Silvine Granger, F.Vakk, Yu.R.Solodub, A.D.Rayxshteyn, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, N.N.Amasova, A.M.Babkin, V.L.Arhangelskiy, I.I.Chernyasheva, I.V.Arnold, N.M.Shanskiy, A.Sh.Magaramova, A.Isayev va M.Xusainov³ kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Frazeologik

² Сатторов Т.К. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 192 б.; Махкамova Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности // Бўлажак чет тил ўқитувчисини йўналтириш технологияси: илмий-амал. конф. материал – Т., 2009. – С. 45-150; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов: Автореф. дисс... доктора пед. наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.; Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – 294 с.; Бакиева Г.Х., Ирискулов М.Т., Рашидова Ф.М. —English B1. Student’s book. For the 1st year students of Academic Lyceums and Vocational Colleges. – Т: Ўзбекистон, 2014 г. – 176 с.; Джусупов М. Речевая интерференция как результат двуединого отрицательного воздействия // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. –М., 2021. №1. – С. 23-40. Ro‘zmetova M.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim 5-7 sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalar. - Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan DDI. – 231 b.

³ Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Лексикология и лексикография. Избранные труды. – М.: Наука, 1977. – С. 118-139; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. Для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Феникс, 1996. – 12с; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. –Ленинград: ЛГУ, 1963. – 165с; Бабкин А.М. Русская

birlik va frazeologizmlarga A.Sh.G'aniyeva, V.N.Teliya, T.P.Chepkova, MakKarti va O'Dell, F.Azizova⁴ va boshqalarning tadqiqotlari bag'ishlangan.

Xorijiy davlatlarda ham bir qator olimlar xorijiy tillarni o'rganishda frazeodidaktika, frazeologik kompetensiya va kompetentlikni o'rganishga katta hissa qo'shganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan: E.A.Dobridneva, Kovie, P.Kuhn, Zan Vensian, T.G.Nikitina, T.P.Chepkova, I.A.Gorchakova, L.S.Pugacheva, M.A.Oleynik, G.V.Litkina, O.S.Xosainova, N.V.Bagramova va N.V.Djura, H.H.Luger, N.N.Sonina, Chjao Yalin⁵ va boshqa olimlar frazeologik kompetensiya hamda frazeodidaktika masalalari bilan shug'ullanganlar.

фразеология, ее развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 261с; Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов н/Д.: Ростовского Унив., 1964. – 60с; Чернышева И. И. Фразеология современного немецкого языка. – М.: Высшая. школа, 1970. – 199с ; Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 1991. – 140с; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. 4-е изд., испр. и доп. – СПб.: Специальная литература, 1996. – 192с; Магарамова Шекерханум Арифовна. Обучение русской фразеологии учащихся-азербайджанцев 5-9 классов в диалектных условиях Республики Дагестан. АВТОРЕФЕРАТ. Махачкала 2011.

⁴ Телия В.Н. Типы языковых значений: связанное значение слова в языке [Текст] / В.Н. Телия. – М.: Международные отношения, 1981. – 210 с. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2003). English Idioms in Use. Cambridge University Press, pp. 3–5. Азизова Ф. Инглиз тили фразеологизмларни ўргатиш методикаси. – Тошкент, 2011.-72 б. Добрыднева Е. А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Волгоград, 2000. 42 с.

⁵ Добрыднева Е. А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Волгоград, 2000. 42 с. Cowie, A. P. (1998). Phraseology: theory, analysis, and applications. Oxford University Press. Kühn, P. (1992). Phraseodidaktik: Entwicklungen, Probleme und Überlegungen für den Muttersprachenunterricht und den Unterricht DaF. Retrieved from <https://www.inst.at/trans/23/phraseologismen-im-weiteren-sinn-und-ihre-rolle-als-didaktisches-mittel-bei-der-fremdsprachenvermittlung>. Цзан Вэньцань. Лингводидактическая система формирования фразеологической компетенции китайских русистов: на материале русских соматических фразеологизмов [Электронный ресурс]: Автореферат дис. ... канд. пед. наук / Вэньцань Цзан. – М., 2009. – 22 с. – URL: <https://www.disscat.com/content/lingvodidakticheskaya-sistema-formirovaniya-frazeologicheskoi-kompetentsii-kitaiskikh-rusist> (дата обращения: 28.09.2020). Никитина Т. Г. Аксиологическая семантика фраземы и проблемы формирования фразеологической компетенции студентов-филологов // Учен. записки Новгор. гос. ун-та. 2020. № 4 (29). 13 с. DOI: 10.34680/2411-7951.2020.4(29).13. Чепкова Т.П. Формирование фразеологической компетенции иностранных студентов при обучении русскому языку [Электронный ресурс] / Т.П. Чепкова // Наука и школа. – 2012. – №3. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-frazeologicheskoy-kompetentsiiinostrannyh-studentov-pri-obuchenii-russkomu-yazyku> (дата обращения: 26.09.2020). Горчакова И.А. Фразеологическая компетенция как одна из составляющих уровня профессионального владения первым иностранным языком [Текст] / И.А. Горчакова // «Профессионально-ориентированное обучение иностранным языкам»: Сб. материалов заочной научно-практической конференции. – Вып. 1. – Екатеринбург: УрГПУ, 2009. – С. 72–75.; Пугачева Л.С. Формирование фразеологической компетенции иностранных студентов филологов: на материале фразеосемантического поля "Деятельность человека" [Текст]: Автореф. дис. ... канд. пед. наук / Л.С. Пугачева. – СПб., 2012. – 23 с.; Олейник М.А. Формирование фразеологической компетенции при обучении русскому языку иностранных студентов [Текст] / М.А. Олейник // Актуальные вопросы международной деятельности. Том 1: Сборник научно-методических трудов. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2016. – С. 183–190.; Лыткина Г.В. Формирование фразеологической компетенции на уроках русского языка как иностранного во франкоговорящих группах [Текст] 156/ Г.В. Лыткина // Актуальные вопросы науки: Материалы XXX Международной научно-практической конференции. – М., 2017. – С. 73–78.; Хосаинова О.С. Содержание фразеологической компетенции [Электронный ресурс] / О.С. Хосаинова // Теоретические и методологические проблемы современного образования: Материалы XXXI Международной научно-практической конференции. – М.: Институт стратегических исследований, 2017. – С. 69–71 – URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=29013886> (дата обращения: 28.09.2020). Баграмова Н.В., Джуря Н.В. Специфика обучения фразеологии второго иностранного языка на примере обучения японскому языку студентов-бакалавров // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2017. № 3(69): в 3-х ч. Ч. 3. С. 197-199. (www.gramota.net/materials/2/2017/3-3/56.html). Н. Н. Lüger, "Anregungen zur Phraseodidaktik" in: Beiträge zur Fremdsprachenvermittlung, pp. 32: 69-120, Wien, 1997. Сони́на Ната́лия Николаевна. Когнитивно-Коммуникаторная Методика обучения Фразеологии Английского Языка

O'zbekistonda frazeologik kompetensiya/kompetentlik masalalari bo'yicha U.U. Jumanazarov, D.A. Abduhalikova, L.Galimullinalar⁶ izlanish olib borganlar.

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, respublikamizda maktab ta'lim tizimida ingliz tili frazeologik kompetensiyasini shakllantirish masalasi alohida tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqotning boshlanishi va olib borilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi JDPU bosh ilmiy tadqiqot ishlari rejasi tarkibidagi "Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish va filologik tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan

Tadqiqotning maqsadi 5-9 sinflar frazeologik kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik asoslariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chet tili ta'limi adabiyotlarida "frazeologiya", "kompetensiya", "frazeologik kompetensiya" tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganib chiqish va tahlil qilish;

maktab o'quvchilarining frazeologik kompetensiyasini rivojlantirishda amaldagi o'quv dasturlari va darsliklarini tahlil qilish;

frazeologik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish va rivojlantirish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda uning natijalarni statistik tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti ingliz tili darslarida o'quvchilarning frazeologik kompetensiyasini shakllantirishning jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida 6 ta umumta'lim maktablarida 5-9 sinflarda tahsil oladigan 440 nafar o'quvchilar respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini ingliz tili darslarida o'quvchilarning frazeologik kompetensiyasini shakllantirish jarayonining mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) kabi usullar majmuidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

5-9-sinf darslarida frazeologik iboralarni obrazli ifoda etishda til kontekstida ingliz tilidagi frazeologik iboralar orqali muloqot qilishning ligvodidaktik hamda

Школьников 8-9 Классов Гимназии. Автореферат. Новгород – 2012. Чжао Ялин. Формирование Фраzeологической Компетенции У Китайских Студентов- Филологов. Автореферат. Казань-2020.

⁶ Jumanazarov U.U. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining frazeologik kompetensiyasini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2019. – 352 b. Галимуллина Л. (2021). Некоторые особенности в переводе фразеологических единиц с английского языка на узбекский язык. Общество и инновации, 2(8/S), 205–213. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp205-213>.

psixolingvistik imkoniyatlarining tarkibiy qismlarining rivojlanganlik darajasi isbotlangan;

tizimli integratsiyalashgan yondashuv asosida ingliz tilidagi frazeologik iboralarni qo'llash kompetensiyasini shakllantirish mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning funksional aspektlari xatti – xarakatlarni obrazli ifodalash orqali aniqlashtirilgan;

5–9-sinf darslarida frazeologik iboralarni o'rganishda moslashuvchan va maxsus kompetensiyalarni shakllantirishning tashkiliy komponenti o'quvchilarning kreativligi, loyihalash iqtidorini namoyon qilishga yo'naltirilgan va o'quvchilarning yosh–psixologik xususiyatlari va aniq maqsadga yo'naltiruvchi loyihalari asosida tashkil etishga yo'naltirilgan pragmatik o'quv muhitini identivligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

frazeologik kompetensiyani shakllantirishda amaliy va loyiha ishi, sinfdan tashqari mustaqil ish topshiriqlari, strukturalashgan mashqlar kompleksi elektron manbalar, IR texnologiyalari, ijodiy izlanishlar til o'rganishga qo'yilgan minimal talablar asosida loyihalashning variativligini qat'iy belgilash orqali ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- frazeologik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha asosiy nazariy bilimlarni tahlil qilingan va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

- 5–9-sinf darslarida frazeologik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish modelining baholovchi-natijaviy bloki, mezoni, ko'rsatkichlar va darajalari takomillashtirilgan;

- “Integrated course of teaching foreign languages” nomli o'quv qo'llanma yaratilgan va nashr ettirilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli ma'lumotnoma olindi va nashr ettirilgan O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” davlat muassasasi tomonidan mualliflik guvohnomasi olindi (Guvohnoma № 41683).

“Easy Phrases” nomli mobil ilova yaratilgan va mualliflik guvohnomasi olingan (Jizzax viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi 2024-yil 11-dekabrda 03-01/3-3219-sonli ma'lumotnoma). Umumiy o'rta ta'lim maktabning 5-9-sinf darsliklaridan olingan A2 darajada eng ko'p qo'llaniladigan frazeologik birliklar, ularni tasvirllovchi rasmlar, ma'nolari, na'muna gaplar va talaffuzi keltirib o'tilgan. Shuningdek, o'rganilgan so'z birikmalarni mustahkamlash uchun test topshiriqlari mavjud. Ushbu mobil ilovada keltirilgan frazeologik birliklarni o'rganish orqali o'quvchilarning yozuvida va nutqida ravonlik va mantiqiy bog'lanishlar paydo bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, milliy va xorijiy tajribalarga asoslangan empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining samaradorligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 5–9-sinflarda o‘quvchilarning frazeologik kompetensiyasini shakllantirish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu jarayon uchun takomillashtirilgan pedagogik model va shart-sharoitlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning frazeologik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, frazeologik kompetensiyani mustahkamlashga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi ishlab chiqilib, u o‘quv jarayoniga joriy etish orqali ta‘lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 5-9 sinflar frazeologik kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik asoslariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga oid tadqiqot natijalari asosida:

5 - 9-sinf darslarida frazeologik iboralarni obrazlik ifoda etishda til kontekstida ingliz tilidagi frazeologik iboralar orqali muloqot qilishning ligvodidaktik hamda psixolingvistik imkoniyatlarining tarkibiy qismlarining rivojlanganlik darajasi isbotlashga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘lim vazirligi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 18-iyun 11-05-3965/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada 5–9-sinf darslarida frazeologik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarini shakllantirish modelining baholovchi-natijaviy bloki, mezoni, ko‘rsatkichlar va darajalari takomillashtirilgan.

tizimli integratsiyalashgan yondashuv asosida ingliz tilidagi frazeologik iboralarni qo‘llash kompetensiyasini shakllantirish mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning funksional aspektlari xatti – xarakatlarni obrazli ifodalash orqali aniqlashtirishgan va bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining foydalanishi uchun “Integrated course of teaching foreign languages” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada yaratilgan o‘quv qo‘llanma mazmuni frazeologik kompetensiyaga oid asosiy nazariy bilimlarning tizimli tahlili hamda tegishli ilmiy manbalar bilan boyitilib takomillashtirilgan;

5–9-sinf darslarida frazeologik iboralarni o‘rganishda moslashuvchan va maxsus kompetensiyalarni shakllantirishning tashkiliy komponenti o‘quvchilarning kreativligi, loyihalash iqtidorini namoyon qilishga yo‘naltirilgan va o‘quvchilarning yosh – psixologik xususiyatlari va aniq maqsadga yo‘naltiruvchi loyihalari asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan pragmatik o‘quv muhitini identivligini ta‘minlash asosida takomillashtirga oid taklif va tavsiyalar 2022-2024-yillarda bajarilgan ilmiy loyihada foydalanilgan “English Access Microscholarship Program” (Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan berilgan 2024-yil 24-dekabrda 2854/02-raqamli ma‘lumotnoma). Natijada, umumta‘lim maktablari ingliz darslarida o‘quvchilarning frazeologik birliklardan foydalanish ko‘nikmasini yuqori darajada egallash kompetensiyasini oshirishga xizmat qilgan.

frazeologik kompetensiyani shakllantirishda amaliy va loyiha ishi, sinfdan tashqari mustaqil ish topshiriqlari, strukturalashgan mashqlar kompleksi elektron manbalar, IR texnologiyalari, ijodiy izlanishlar til o‘rganishga qo‘yilgan minimal talablar asosida loyihalashning variativligini qat‘iy belgilash orqali ishlab chiqilgan

(O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 18-iyun 11-05-3965/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy o'rta ta'limda 5–9-sinf o'quvchilarining ingliz tilida frazeologik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar qo'llanildi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning frazeologik birliklarni to'g'ri tushunish va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga, ingliz tilidagi idiomalar, so'z birikmalar va boshqa frazeologik ifodalarni o'zlashtirishda uchrashi mumkin bo'lgan lingvistik va kognitiv to'siqlarni yengib o'tishga yordam berdi. Shuningdek, o'quvchilarda frazeologik kompetensiyani takomillashtirish orqali ularning ingliz tilidagi kommunikativ qobiliyatlarini oshirish, o'zbek tili hamda ingliz tilining frazeologik qonuniyatlarini qiyosiy o'rganish va ingliz tilidagi frazeologik birliklarni kontekstda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini yuqori darajada egallash kompetentligini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta "Integrated course of teaching foreign languages" nomli o'quv qo'llanma, "Easy Phrases" nomli lug'atning mobil ilovasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta xorijiy va 6 ta respublika ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning asosiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"5-9-sinf o'quvchilarining frazeologik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari"**, deb nomlangan birinchi bobida frazeologiya va frazeologik birlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, frazeologik kompetensiyasini shakllantirish texnologiyalarining zamonaviy maktab ta'lim tizimidagi mazmuni, pedagogik xususiyatlari va ahamiyati haqida so'z boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini qabul qilinishi chet tillarni, jumladan, ingliz tilini uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mukammal o'rganishni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega

bo'ldi⁷. Mazkur qaror O'zbekistonda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'qitishda qator ijobiy natijalarga olib kelishi nazarda tutildi. Bu natijalar esa 5-9 sinf o'quvchilarining bilim darajasi A2 darajasiga javob berishi nazarda tutilgan holda ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, so'nggi yillarda chet tili o'rganuvchilari orasida frazeologiyaga, ayniqsa frazeologik kompetensiyaga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Frazeologiya – “tilning hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotida frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasidir”. Frazeologiyaga barqaror nutq shakllarini o'rganuvchi fan sifatida qarashga qaramay, talaygina tadqiqotchilar uni so'zlarning leksik-semantik mosligini o'rganadigan tilshunoslikning maxsus tarmog'i sifatida tushunishadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarni muloqot jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarning tilni tabiiyroq tushunish imkoniyati ortadi. Chet tilini o'rganish jarayonida frazeologizmlar matnni kontekstual anglash, ma'no tafovutlarini his qilish va kommunikativ mahoratni oshirishda muhim rol o'ynaydi⁸. Bundan tashqari, frazeologik birliklarni o'rganish o'quvchilarga tilning pragmatik va madaniy jihatlarini ham tushunish imkonini beradi⁹.

Frazeologik birliklarni bilish o'quvchilarning: 1. Til boyligini oshiradi – yangi frazeologizmlarni o'zlashtirish orqali o'quvchilar tildan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi¹⁰. 2. Madaniy tafakkurni rivojlantiradi– frazeologizmlar milliy madaniyat va mentalitetni aks ettirib, til o'rganish jarayonini yanada mazmunli qiladi¹¹. 3. Pragmatik kompetensiyani rivojlantiradi– frazeologik birliklar nutq jarayonida mos holatda ishlatilishi zarur bo'lib, bu o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantiradi¹².

Tilning frazeologik jihatlarini kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, madaniy farqlarni anglash va chet tilida o'z fikrini aniq ifoda etish imkonini beradi. Frazeologik birliklar so'z boyligini oshirish bilan birga, til o'rganuvchilarni tilning jonli va tabiiy qismi bilan tanishtiradi. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganishda frazeologik kompetensiya alohida o'rin tutadi, chunki ushbu til frazeologizm va idiomalarga boydir. Frazeologik kompetensiya atamasiga yuzlanishdan oldin, kompetensiya terminiga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

“Kompetensiya” atamasining tarixiga nazar solar ekanmiz, uni ilk bor AQShning Massachusetts universitetida XX asrning o'rtalarida Noam Xomskiy tomonidan tilshunoslik fanida qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. Noam Xomskiy tomonidan “til kompetensiyasi” atamasi orqali tilshunoslikka kiritilgan. Olimning

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son qaror. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/5426736>

⁸ Wray, A. (2002). *Formulaic Language and the Lexicon*. Cambridge University Press, pp. 27-30.

⁹ Cowie, A. P. (1998). *Phraseology: theory, analysis, and applications*. Oxford University Press. p 258.

¹⁰ Стурикова М. В. Коммуникативная компетенция: к вопросу о дефиниции и структуре // Инновационные проекты и программы в образовании. 2015. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikativnaya-kompetentsiya-k-voprosu-o-definitsii-istrukture> (дата обращения: 02.11.2019).

¹¹ Вятютнев М.Н., 1986, Традиции и новации в современной методике преподавания русского языка и литературы: Доклады советской делегации на конгрессе МАПРЯЛ. – М., pp. 79-84.

¹² Рябцева О. М. Сущность понятия коммуникативная компетенция (КК) / Известия Южного федерального университета. Технические науки. 2006. № 9-2 (64). 136-138 с.

ta'rificha, "Kompetensiya-tilni qo'llash jarayonidagi faoliyatga yo'nalgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir". Ushbu atama lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib, shaxsning muayyan sohada faoliyat olib borishi uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi. "Kompetentlik" tushunchasi esa "ijtimoiy–amaliy vazifalarga moslik, shaxs bilim va malakalarining amaliy nuqtai nazardan bajarilishi, maqsad va vazifalarga loyiqligidir.

Frazeologik kompetensiya chet tilini o'qitish metodikasida alohida e'tibor talab qiluvchi sohalardan biri bo'lib, u o'quvchilarning frazeologizmlarni tushunish, holatga mos ravishda qo'llash va ularning semantik xususiyatlarini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi¹³. Frazeologik kompetensiya til, nutqiy va sotsiomadaniy kompetensiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning tarkibiy qismi sifatida shakllanadi. Bu holat shuni anglatadiki, frazeologik birliklarni egallash nafaqat tilning leksik-semantik tizimini o'zlashtirishni, balki nutqiy faoliyatda ularni mazmunan to'g'ri qo'llashni va shu orqali milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettirishni ham talab etadi. Frazeologiyani bunday ko'p qirrali mohiyatga egaligi uni uchta asosiy kompetensiya – til, nutqiy va sotsiomadaniy kompetensiyalarning birlashgan nuqtasi sifatida talqin etishga imkon beradi. Chunki frazeologizmlar bir tomondan tilning leksik tarkibini boyitsa, ikkinchi tomondan, kommunikativ jarayonlarda nutqiy faoliyatni obrazli va ta'sirchan qiladi. Shu bilan birga, ular xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etganligi sababli, sotsiomadaniy bilimlarning ham muhim tashuvchisi hisoblanadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarning nazariy asoslari va amaliy natijalariga tayanilgan holda, ushbu tadqiqot doirasida mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *Frazeologik kompetensiya – bu o'rganuvchining og'zaki va yozma nuqtda frazeologik birliklardan, jumladan: so'z birikmalari, idiomalar, maqollar, frazali fe'llar va boshqa so'z birliklarni to'g'ri tushunish va ulardan foydalana olish ko'nikmasidir.* Frazeologik kompetensiya chet tilini o'qitish metodikasida, umuman, madaniyatlararo kommunikatsiya konsepsiyasi bilan hamohangdir. Ingliz tilini yaxshi o'zlashtirgan, lekin frazeologik birliklarni yetarlicha bilmaydigan o'quvchi real muloqotda, ayniqsa, ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyat vakillari bilan suhbat qurishda turli madaniy to'siqlarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, u tilning ijodiy ko'rinishlarini tushunishga qiynaladi, videoroliklar, kinokomediya, talk-show, kechki ko'rsatuvlar (late-night shows)dagi turli kinoya yoki idrokni kengaytiruvchi iboralarni ilg'ab ololmaydi. Natijada, madaniy boylikdan to'la bahramand bo'la olmaydi, bu ham muloqotda kamchiliklarga sabab bo'ladi. Shu bois, ingliz tili darslari jarayonida frazeologik kompetensiya o'qitishning asosiy ustunlaridan biri sifatida qaralishi ham zamon talabidir. Bu nafaqat lingvistik jihatdan, balki psixologik va madaniy jihatdan ham chuqurroq, puxta poydevor yaratadi.

Dissertatsiyaning **"Umumiy o'rta ta'lim maktabning 5-9-sinf o'quvchilarida frazeologik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy metodik asoslari"**, deb nomlangan ikkinchi bobida maktab o'quvchilarida ingliz tili darslarida frazeologik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik

¹³ Howarth, P. A. (1998a). Phraseology and second language proficiency. *Applied Linguistics*, 19(1), 24-44.

mazmuni, texnologiyalarining bosqichlari, modeli va mashqlar majmui haqida soʻz boradi.

Oʻqitish sifati va oʻquvchilarning bilimi koʻp jihatdan dastur va darsliklar tuzilishi, mazmuni va tamoyillariga bogʻliq. Buning yaqqol namunasi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-sonli Qarori bilan har bir taʼlim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi uzluksiz taʼlim tizimining Davlat taʼlim standartlari (DTS) tasdiqlandi va 2013/2014 oʻquv yilidan boshlab respublikamizda xorijiy tillarni, asosan, ingliz tilini oʻrganish umumtaʼlim maktablarda bosqichma-bosqich joriy etildi. DTS oʻquvchilarning chet tillar boʻyicha bilim va tayyorgarlik darajalarini belgilab berib, oʻquv reja va dasturlar, darsliklar, qoʻllanmalarni ishlab chiqishda asos boʻlib xizmat qiladi.

2016-2017 oʻquv yillardan boshlab mamlakatimizda ilk marotaba barcha oʻquvchilar uchun yangi DTS asosida chet tillarni oʻrgatish qamrab olindi. Maktablarda bosqichma-bosqich chet tillarni DTSda belgilangan darajada egallanishini taʼminlash maqsadida umumiy oʻrta taʼlim davlat taʼlim standartining tayanch oʻquv rejasi qayta tahrir etilib, chet (ingliz, nemis va fransuz tili) tillaridan oʻquv dasturlari¹⁴ va darsliklar yaratildi. Chet tilini bilishning umumiyeropa kompetensiyalari: oʻrganish, oʻqitish va baholash” talablariga tayangan holda V-IX sinflarda A2 – chet til egallashning tayanch darajasi (yoki “Waystage level”, “Boʻsagʻa oldi bosqichi”), A2+ –chet til egallashning kuchaytirilgan tayanch darajasi belgilandi.

Darsliklarning umumiy mazmunini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, maktabda ingliz tilini oʻrgatishda umumiy didaktik va maxsus metodik tamoyillar qoʻllanilgan. Ingliz tili darsligining mazmuni va tuzilishiga kelsak, asosiy muammo dasturda frazeologik birliklar ustida ishlash talablari yoʻqligi boʻlib, bu frazeologik materiallarning darsliklarga yetarlicha va tizimli ravishda kiritilmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, darsliklarda barcha sinflarda frazeologik material mavjud, lekin teng ravishda berilmagan. Frazeologik birliklarning darsliklarda qoʻllanilishi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadvalga qarang).

1-jadval.


Frazeologik birliklarning darsliklarda qoʻllanilishi

Sinf	5	6	7	8	9	Jami
Mashqlardagi frazeologik birliklar	54	55	144	118	205	576
Mashqlar	236	257	286	281	569	1629

5-9-sinf oʻquvchilari uchun yaratilgan darsliklar va mavjud ilmiy manbalarga asoslanib, Tadqiqot doirasida oʻquvchilarning frazeologik kompetensiyani shakllantirish modeli tizimli-funksional modeli ishlab chiqildi.

¹⁴ Xalq taʼlimi. №4. Oʻzbekiston Respublikasi uzluksiz taʼlim tizimining Davlat taʼlim standartlari. - 2013. B.4-32.

Model- tadqiqot obyektni aks ettirib, yoki qayta ishlab, uni o'rganishni, bizga obyekt haqidagi yangi ma'lumot beradigan hamda u haqida fikriy tasavvur yoki ma'lumotlarni amalga oshiradigan tizim tushuniladi. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, ba'zida "model" tushunchasi umumiya nisbatan alohida tushuncha sifatida tushuniladi, boshqa hollarda esa aksincha. Yangi modelni takomillashtirish uchun, biz talab qilingan va amalga oshirish kerak bo'lgan alohida harakatlar tuzilmasini hamda ularning tartibini aniqladik (3-rasmga qarang).



2-rasm. O'quvchilarning frazeologik kompetensiyani shakllantirish modeli

Biz ishlab chiqqan model to'rtta blokdan iborat bo'lib, bu bloklar quyidagilar iborat:

- 1- Maqsadli blok;
- 2- Pedagogik jarayonli blok;
- 3- Baholash blok;
- 4- Natija blok;

Bu bloklar o'z o'rinda ya'ni maqsadli blokda ijtimoiy buyurtma sifatida o'quvchilarning frazeologik kompetensiyani shakllantirishga doir malaka talablari va maqsad qilib, 5-9-sinflar frazeologik kompetensiyani shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat deb belgilab olindi.

E.T.Erkayevning dissertatsiya ishida til materialiga doir mashqlar o'z navbatida retseptiv va reproduktiv til materialiga oid mashqlarga bo'linishini ta'kidlaydi¹⁵.

Retseptiv va reproduktiv mashqlarni ajratishda frazeologizmlarning lingvistik xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Frazeologiya darajasida retseptiv mashqlarning vazifasi tilning alohida tuzilma sifatida shakllangan birliklarini semantik va struktural jihatdan yaxlit qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu jarayonda frazeologik birliklarning konnotativ xususiyatlari ajratib ko'rsatilishi zarur, chunki bu ularning o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi.

Reproduktiv mashqlarning maqsadi esa frazeologizmlarni nutqda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning sintaktik tuzilishi va morfologik xususiyatlarini, sintaktik va leksik bog'lanish qoidalarini, konnotativ xususiyatlarini o'zlashtirishdir. Ba'zi mashq turlari umumiy tusga ega bo'lib, ular nutqni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

Shuningdek, o'quvchilarda frazeologik kompetensiyani rivojlantirishda **“frazeo-material”** atamasiga ham e'tibor qaratish lozim. Bizning fikrimizcha, bu atamada ***frazeologik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan, frazeologik birliklar ishtirok etgan, murakkabligi jihatidan xilma-xil mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan mashqlar, testlar, o'yinlar va lisoniy matnlar majmui tushunchasi yotadi.***

Frazeologik birliklarni o'zlashtirish bo'yicha mashqlar tizimini aniqlash quyidagi maqsad va vazifalarni hisobga olishni talab qiladi:

- a) aniq til materialini yoki til hodisasini o'zlashtirish, unga oid xususiy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- b) til materialining ma'lum bir til ost-tizimini o'zlashtirish hamda unga oid xususiy nutqiy ko'nikmalar va malakalar majmuasini rivojlantirish;
- c) tilni amaliy egallash.

Frazeologik birliklarni o'rgatishga oid mashqlarni ishlab chiqishda quyidagi omillar hisobga olindi: asosiy e'tibor o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratildi; frazeologizmlarni o'zlashtirish grammatik material bilan bog'landi, chunki o'quvchilar nafaqat semantikani, balki frazeologik birliklarning grammatik va leksik bog'lanish meyorlarini ham egallashi lozim.

¹⁵ Erkeyev, E.T. Linguodidactic Classification of Translation Exercises Used in the Training of Future Foreign Language Teachers. PhD dissertation in pedagogical sciences. Tashkent, 2008.

Bizning nazariy va amaliy tadqiqotlarimiz asosida o'quvchilarning frazeologik kompetensiyasini rivojlantirish uchun eng samarali mashqlar quyidagilar deb hisoblaymiz:



3-rasm. Frazeologik kompetensiyani shakllantirishda mashqlar majmui

Darsliklarni tahlil qilish orqali shunga amin bo'ldikki, frazeologik birliklarni o'qitishga oid parafrazlash va tarjima mashqlari berilmagan. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi kabi mashqlarni bajarish uchun o'quvchilarda frazeologik malaka bo'lishi talab etiladi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi”**, deb nomlangan uchinchi bobida o'quvchilarning frazeologik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan eksperimental ishlarning natijalari yoritilgan. Tajriba-sinov ishlari 2021-yildan boshlab amalga oshirilgan bo'lib, tajriba-sinov ishlarining yakuniy natijalari 2024-yil o'rtalarida qo'lga kiritildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda frazeologik kompetensiyani shakllantirish tizimi bo'yicha tajriba-sinov ishlari Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman 20 va 50-umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida, Jizzax viloyati Forish tuman 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida, Jizzax shaxar 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida, Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 21-IDUM, Sirdaryo tuman 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining 7-8-9-sinflari o'rtasida 2021-2024 yillarda amalga oshirilgan bo'lib, uch bosqichda olib borildi. Tajriba-sinovga jalb qilingan respondentlarning umumiy soni 440 nafar bo'lib, shulardan 140 nafari 7-sinf o'quvchilari, 140 nafari 8-sinf o'quvchilari, 160 nafari 9-sinf o'quvchilarini tashkil etdi. Har bir maktab nazorat guruhi (NG) uchun bittadan guruh, tajriba guruhlari (TG) uchun belgilangan guruh teng yarmi ajratib olindi, baholash mezonlari–yuqori (a'lo), yaxshi (yaxshi), o'rta (qoniqarli) asosida aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi.

Birinchi bosqich–ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari. Muammoni har taraflama aniqlashdan iborat. Ushbu bosqichning vazifalari: ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarda frazeologik kompetensiyani shakllanganlik darajasini aniqlash, ularning motivatsiyasi va ingliz tiliga qiziqish darajasini tahlil qilish;

Ikkinchi bosqich–shakllanuvchi tajriba-sinov ishlari. Ushbu bosqichning vazifasi ishlab chiqilgan materialni sinab ko'rish va natijalarni kuzatishdan iborat

bo'ldi. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish tashkiliy (seminar treninglar va pedagogik dasturlar va seminar trening o'tkazish mavzulari) va tajribaviy (qiyosiy tahlil; anketa; savol-javob; suhbat; pedagogik kuzatish; pedagogik tajriba; ekspert baholash v.b.) shakllarda olib umumiy o'rta ta'lim maktablarida borildi. Tajriba-sinov ishlari ta'lim tizimiga bog'liq holda, xalq ta'limi muassasalarini tajriba-sinov faoliyatiga muntazam ravishda takomillashtirish jarayonidan o'tkazildi.

Uchinchi bosqich–yakuniy tajriba-sinov ishlari. Uning vazifalari: 1) ingliz tilini o'qitishda 5-9 sinf o'quvchilarining frazeologik kompetensiyalarini shakllantirish darajasini aniqlash; 2) o'tkazilgan eksperimental ish natijalarini tahlil qilish va baholash.

Tajriba-sinov jarayonida qo'llanilgan frazeologik kompetensiyani rivojlantiruvchi texnologiyalar umumiy tarzda quyidagi jadval ko'rinishida ixchamlashtirilgan tarzda ingliz tilida bayon qilinadi (5-jadvalga qarang).

4-jadval.

5-9 sinflarda ingliz tilida frazeologik kompetensiyani rivojlantirishda qo'llanilgan texnologiyalar

Technique: COLLOCATION WEB. Students work with common word partnerships in English. The teacher writes a key word (e.g., “make”) in the center of the board and students create a web of collocations around it (make a decision, make friends, make a mistake, etc.). Students then work in pairs to create similar webs for other verbs like “do”, “have”, “take”. Each pair shares their collocation web, and the class discusses which combinations are correct. This visual organization helps students understand how words naturally combine in English.
Technique: PHRASAL VERB CHARADES. The teacher prepares cards with common phrasal verbs (get up, look after, give up, etc.). The class is divided into two teams. One student from each team comes forward and acts out the phrasal verb without speaking while their team guesses. For example, for “wake up” a student might mime sleeping and then suddenly opening eyes and stretching. Teams earn points for correctly guessing the phrasal verb and using it in a sentence. This kinesthetic approach helps students remember phrasal verbs through physical association.
